



**KLINIK LABORATOR  
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA  
YECHIMLAR  
xalqaro ilmiy-amaliy  
anjuman  
18 aprel 2023 yil**



**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi**

**[www.ssv.uz](http://www.ssv.uz)**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi [www.tma.uz](http://www.tma.uz)**

|   |            |
|---|------------|
| анемия билан касалланган беморларда эритроцитларнинг морфологик ўзгариши .....  | <b>201</b> |
| <b>Яхшибоев Р.Э., Яхшибоева Д.Э., Эрметов Э.Я.</b> Анализ инновационных оборудований для диагностики гастроэнтерологических заболеваний ..... | <b>202</b> |
| <b>Яхшибоева Д.Э., Эрметов Э.Я., Яхшибоев Р.Э.</b> Цифровые технологии для первичной диагностике разных медицинских заболеваний..             | <b>204</b> |
| <b>Abdiraimova A.N., Shaxmurova G.A., Kurbonova Z.Ch.</b><br>Eritrotsitlarning morfologik xususiyatlari .....                                 | <b>207</b> |
| <b>Abdiraimova A.N., Shaxmurova G.A., Kurbonova Z.Ch.</b><br>Gemoglobinni aniqlashning klinik ahamiyati .....                                 | <b>209</b> |
| <b>Abdiraimova A.N., Shaxmurova G.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Leykositlarning turlari va faoliyati .....  | <b>211</b> |
| <b>Abdiraimova A.N., Shaxmurova G.A., Kurbonova Z.Ch.</b><br>Eritrotsitlarning osmotik rezistentligi .....                                    | <b>213</b> |
| <b>Abdiraimova A.N., Shaxmurova G.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Qon guruhlarining tavsifi va aniqlash usuli .....                                   | <b>215</b> |
| <b>Abdiraimova A.N., Shaxmurova G.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Qon va qon hujayralarining faoliyati .....  | <b>216</b> |
| <b>Abdiraimova A.N., Shaxmurova G.A., Kurbonova Z.Ch.</b> Quruq monoklonal reagent eldoncard yordamida qon guruhini tekshirish .....          | <b>218</b> |
| <b>Abdiraimova A.N., Shaxmurova G.A., Kurbonova Z.Ch.</b><br>Retikulositlarning klinik ahamiyati .....  | <b>220</b> |
| <b>Abdiraimova A.N., Shaxmurova G.A., Kurbonova Z.Ch.</b><br>Trombositlarni laborator tekshirish usullari .....                               | <b>221</b> |
| <b>Abdurahmonov L.N.</b> Temir tanqisligi kamqonligini laborator tashxislashda ferritin oqsilining klinik ahamiyati .....                     | <b>223</b> |
| <b>Abdurahmonov L.N.</b> Ferritin oqsilining klinik ahamiyati .....   | <b>224</b> |
| <b>Anvarova E.V, Ashurova R.</b> Possibilities of multiparametric examination in the diagnosis of tuberculosis of peripheral lymph nodes ...  | <b>226</b> |
| <b>Asqarova G.E.</b> Bilirubin va uning klinik ahamiyati .....  | <b>227</b> |
| <b>Babadjanova Sh.A., Qurbanova G.Ch.</b> Diffuz toksik buqoq patogenetik aspekti .....   | <b>229</b> |
| <b>Bekchanova N.I., Po'latova N.O'.</b> Hemostatic changes in thyroid   |            |

**LEYKOSITLARNING TURLARI VA FAOLIYATI**  
**Abdiraimova A.N.<sup>1</sup>, Shaxmurova G.A.<sup>1</sup>, Kurbonova Z.Ch.<sup>2</sup>**  
**1 Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**  
**2 Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Romanovskiy –Gimza usulida granulalarning bo'yalishiga ko'ra 2 turdag'i leykositlar farq qiladi:

1. **Granulositlar.** Hujayra sitoplazmasida maxsus granulalar bo'lib, ularga neytrofil, eozinofil va bazofillar kiradi.

2. **Agranulositlar.** Sitoplazmasida maxsus granulalar bo'lmaydi. Ularga monosit va limfositlar kiradi.

**Tayoqcha yadroli neytrofil** diametri 12-16 mkm. Yadro-sitoplazma nisbati 1:1. Yadrosi pushti-binafsha rang, shakli tayoqcha ko'rinishida, xromatin strukturasi yirik bo'lakchali, zich, yadrocha mavjud emas. Hujayra sitoplazmasi pushti rang, neytrofil donadorlikka ega.

**Segment yadroli neytrofil** diametri 12-16 mkm, hujayra yadrosi qizil - binafsha rang, yadro - sitoplazma nisbati 1:6-1:8. Xromatin strukturasi yirik bo'lakchali. Xujayra sitoplazmasi pushti rang, neytrofil donadorlikka ega.

Neytrophillarning asosiy funksiyalari:

1. Fagositoz
2. Dezintoksikasiya
3. Yallig'lanish reaksiyasini chaqirish.
4. Leykositlarni yetilishida ishtirok etish.
5. Qon ivishida ishtirok etish

Normada periferik qonda tayoqcha yadroli neytrophillar 0-6%, segment yadroli neytrophillar 47-72%.

**Eizinofillar** 12-16 mkm diametrini yulumaloq hujayralar bo'lib, yadro sitoplazmatik nisbati 1:1. Yadrosi to'q binafsha rang, odatda ikkita segmentdan iborat, xromatin strukturasi notekis, yirik bo'lakchali. Sitoplazma oksifil, yirik sariq-pushti rangli maxsus granulalarga ega. Eizinofillar qonda 6-12 soat bo'ladi, keyin to'qimalarga o'tadi. Eizinofillar 4 - 30 soat yashaydi. Normada leykoformulada 0-5% eizinofillar bo'ladi.

Eozinophillarning funksiyasi:

1. Allergik reaksiyalarni cheklash.
2. Antigelment immunitetni hosil qilish.
3. Fagositoz.
4. Yallig'lanish jarayonida ishtirok etish.
5. Qon ivishida ishtirok etish.

**Bazofillar** leykotsitar formulada normada 0-1% uchraydi. Ularning funksiyasi:

1. Qon tomir o'tkazuvchanligini yaxshilash.
2. Allergik reaksiyalarni cheklash.
3. O'smaga qarshi jarayonda ishtirok etish.
4. Yallig'lanishga qarshi ta'sir.

5. Qon ivishida ishtirok etish.
6. Triglitseridlar metabolizmida ishtirok etish.

**Monosit** y yumaloq shakldagi, diametri 18-20 mkm bo'lgan hujayradir. Yadro - sitoplazmatik nisbati 1:1. Monosit yadrosi loviyasimon, buyraksimon, segment yoki tayoqcha shaklida bo'ladi, ekssentrik joylashadi. Xromatin strukturasi siyrak. Monosit sitoplazmasi keng, havo-kulrang. Funksiyalari:

1. Fagositoz.
2. Maxsus immunitetni hosil qilish.
3. Reparativ jarayonlarda ishtirok etish.
4. Gemopoez regulyasiyasi.
5. Metallar metabolizmida ishtirok etish (temir, mis, rux).

Normada leykoformulada monotsitlar soni 3-11%. Absolyut soni 0,09-0,60x10<sup>9</sup>/l.

**Limfosit** 9-15 mkm diametrغا ega bo'lgan y yumaloq hujayradir. Hujayra yadro - sitoplazmatik nisbati 4:1-8:1, yadrosi y yumaloq, xromatin strukturasi dag'al, bo'laklangan, sitoplazmasi bazofil, yupqa. Morfologiysi bo'yicha limfositlar kichik, o'rta va katta bo'ladi.

Normada leykositar formulada limfositlar miqdori 19-37%, absolyut soni 1,2-3,0x10<sup>9</sup>/l.

Limfositlar funksiyasi:

1. Plazmatik hujayraga aylanadi va antitelo ishlab chiqaradi
2. Yot, saraton hujayralari, virus, sodda hayvonlarga qarshi sitotoksiq ta'sir
3. Antigenlar to'g'risida ma'lumot saqlaydi

#### **Adabiyotlar.**

1. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: ўкув қўлланма. Тошкент, 2022. 137 б.
2. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: электрон ўкув қўлланма. 2022, 146 б.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Лаборатория иши: ўкув қўлланма. 2023, 150 б.
4. Babadjanova Sh.A., Kurbanova Z.Ch. Qon kasalliklari: o'quv qo'llanma. 2023, 156 b.
5. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.
6. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: elektron o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 176 b.
7. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxisiga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.
8. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik tashxis asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.
9. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik diagnostika asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.
10. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Saidov A.B. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2021. – 56 b.

11. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Laboratory work: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.

12. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Introduction to cytological diagnostics: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.

**ERITROTSITLARNING OSMOTIK REZISTENTLIGI**  
**Abdiraimova A.N.<sup>1</sup>, Shaxmurova G.A.<sup>1</sup>, Kurbonova Z.Ch.<sup>2</sup>**  
**1 Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**  
**2 Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Eritrotsitlarning osmotik rezistentligi (EOR) deganda eritrotsitlarni parchalovchi vositalarga (osmotik, ximik, mexanik) bo'lgan chidamliligi tushuniladi. Klinikada ko'proq osmotik rezistentligini gipotonik eritmada aniqlash ishlataladi. Gipotonik eritmada eritrotsitlar diametri o'zgaradi (shishadi), eritrotsitlar uchun gipotonik eritma natriy xlorning (NaCl) 0,85% konsentratsiyali eritmasi hisoblanadi. Eritrotsitlarning minimal osmotik rezistentligi gipotonik eritmaning eng yuqori konsentratsiyasida tekshiriladi, ya'ni eng chidamsiz eritrotsitlar yorila boshlagan eritmada normada minimal osmotik rezistentligi 0,55 – 0,46% natriy xlorga teng. Maksimal osmotik rezistentlik esa natriy xlorning past gipoosmolyar konsentratsiyasida barcha eritrotsitlarning yorilishidir. U kattalarda 0,34 – 0,28% ga teng.

Mikrosferositar gemolitik anemiyada eritrotsitlar osmotik chidamliligi sezilarli darajada pasayadi. EOR pasayishi chaqaloqlar gemolitik kasalligida, toksikozlar, bronxopnevmoniya, sil, bezgak, leykoz, jigar sirrozida ham kuzatiladi. EOR oshishi o'rroqsimon (drepanositar) anemiya, mexanik sariqlikda kuzatiladi.

Qizil qon hujayralarining osmotik qarshiligini tekshirish printsipi. Eritrotsitlar gipotonik eritmaga gemolizga uchraydi.

Quyidagi konsentratsiyalarning gipotonik eritmalarini zaxira eritmasidan tayyorlanadi: 0,9, 0,75, 0,65, 0,60, 0,55, 0,50, 0,45, 0,40, 0,36, 0,34, 0,32, 0,30, ular +4°C haroratda bir necha hafta davom etadi. Gipotonik eritma quyidagicha tayyorlanadi: 13 shisha 100 ml kerakli raqam bilan belgilanadi tuzli eritmaning suyultirilishini oling; zaxiradagi eritmadan biz flakonda qayd etilgan raqamdan 10 baravar ko'p hajmni tanlaymiz (masalan., 0,15% qayd etilgan flakonga 1,5 ml quying), so'ngra distillangan suv bilan 100 ml gacha to'ldiring. Qizil qon tanachalari geparinlangan yoki defibrangan yangi tanlangan qondan olinadi.

Eritrotsitlarning osmotik rezistentligini aniqlash. Buning uchun 12 ta probirka raqamlanib shtativga qo'yiladi va NaClning kamayib boruvchi konsentratsiyali eritmalarini tayyorlanadi.

| Probirka<br>raqamlari   | 1   | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  | 11  | 12  |
|-------------------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| 0,9% NaCl,<br>ml        | 8,3 | 7,8 | 7,2 | 6,7 | 6,1 | 5,6 | 5,0 | 4,5 | 4,0 | 3,8 | 3,6 | 3,4 |
| Distillangan<br>suv, ml | 1,7 | 2,2 | 2,8 | 3,3 | 3,9 | 4,4 | 5,0 | 5,5 | 6,0 | 6,2 | 6,4 | 6,6 |